

AHOLI BANDLIGI SHAKLLANISHIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI

N.S.Pardayev – *stajyor o'qituvchi*

S.M.Xursanov – *tayanch doktorant*

O'zbekiston milliy universiteti

Tayanch so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, oila turmush darajasi, oilaviy biznes, daromad, oila farovonligi, kichik biznes, bozor iqtisodiyoti, bandlik muammosi, aholini ish bilan ta'minlash.

Ключевые слова: семейное предпринимательство, семейный уровень жизни, семейный бизнес, доходы, семейное благосостояние, малый бизнес, рыночная экономика, проблема занятости, обеспечение занятости населения.

Key words: family entrepreneurship, family standard of living, family business, income, family welfare, small business, market economy, employment problem, providing employment to the population

Hozirgi XXI asr fan texnika taraqqiy etgan davrda hech qaysi davlatlarni ishlab chiqarishsiz rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bu borada har bir davlatda kichik biznes va tadbirkorlik sohalar alohida ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, har qanday davlatning ijtimoiy - iqtisodiy farovonlik omili – bu kichik biznes sohalarini rivojlantirish hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes, jumladan, oila tadbirkorligi iqtisodiy o'sish, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Oilaviy tadbirkorlik faoliyati bozor o'zgarishlariga mos ravishda harakatlanadi, tashqi muhit ta'siriga tezda javob qaytaradi, ya'ni zamon talabini o'rgangan holda tezkorlik bilan yangi mahsulotni o'zlashtirib, yakuniy mahsulot ko'rinishiga keltiradi. Oilaviy tadbirkorlikning shu va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini, uni rivojlantirishni davlat doimo muhim vazifalari qatoriga qo'yadi.

Bugungi kunda aholisi soni 37 milliondan ortiq O'zbekistonda 6 millionga yaqin oilalar mavjud. Oilalarga farovon turmush darajasini yaratish hamda daromadlarini oshirish davlat miqyosidagi iqtisodiy islohotlarning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida: "... doimiy ish joylarini yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo'jaligini keng rivojlantirish ishlari ham oqsamoqda" deya ta'kidlashlari o'rinli [10]. Qayd etish lozimki, oilalar daromadlari tarkibi o'zgarimoqda–tadbirkorlikdan olinayotgan daromadlar aholi yalpi daromadlarining yarmidan ziyodini tashkil etmoqda. Holbuki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 20-25 foizdan oshmaydi.

Bunday sharoitda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlik muammosini, ayniqsa, xotin-qizlar, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash, oilalarning daromadini sezilarli darajada ko'paytirish, mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish imkonini yaratadi. Bu birinchidan, aholini ish bilan ta'minlash orqali oilalarning muhim daromad manbai va mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosi bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatimiz bozorini mahsulot va xizmatlarga ehtiyojini qondirish orqali aholining turmush darajasi oshishiga sabab bo'ladi. Oilaviy tadbirkorlik deganda, oila a'zolarining va ularga ko'maklashadigan boshqa yollangan ishtirokchilarning tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida jismoniy yoki yuridik shaxs maqomini olib, qonuniy asosda daromad (foyda) olishga mo'ljallangan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi [3].

Mazkur sohada jahon tajribasini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada o'rganilgan davlatlarda Oilaviy tadbirkorlik o'ziga xos ko'rinishga ega. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning katta qismi "Oilaviy biznes" asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Masalan, AQShda oilaviy firmalar soni 16 millionni tashkil qilsa, Rossiyada barcha kichik va o'rta korxonalarining 85 foizi oilaviy korxonalar hisoblanadi. Shvetsiyada ishga layoqatli aholining 60 foizdan ortig'i oilaviy biznesda o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Angliyada butun oilaviy biznesni 16

foizi to'rt marta avloddan avlodga o'tganligi bilan ajralib turadi.



1-rasm. Oilaviy tadbirkorlikning joylashish nuqtayi nazaridan tasnifi.

Davlatning iqtisodiyotga, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi davlat tomonidan shu sohaga taalluqli qonunlar yaratilishi bilan amalga oshiriladi. So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini tashkil qilish va ularning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining qator qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yil 16-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2012-yil 23-martda ma'qullangan "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi 327-sonli Qonun ham shular jumlasidandir. Qonunda quyidagi asosiy vazifalar qayd etib o'tilgan:

- oilaviy korxona ishtirokchilari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin ularning tasarrufida qolgan foyda soliq solishdan ozod etilishi belgilandi;

- oilaviy korxona ishtirokchilari oila yashab turgan turar joyda turar joylarini noturar joylarga o'tkazmasdan faoliyat yuritishi va o'zi ishlab chiqargan mahsulotni shu joyning o'zidan sotishiga ruxsat etildi;

Bundan tashqari keyingi yillarda qabul qilingan qarorlarda ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777 sonli «Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risidagi qarorida Oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga juda katta imtiyozlar berilganligi, xususan ularga berilgan soliq to'lash va ular uchun alohida ajratilayotgan kreditlar olish borasida juda keng imtiyozlar berilganligi sohani mamlakatda yanada tez rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan mamlakatda aholining bandligi ta'minlanishiga, daromad manbayiga ega bo'lishiga va bu esa mamlakat rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi albatta.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning o'ziga xos ijobiy taraflari mavjuddir. So'nggi yillarda mazkur sohaga qaratilayotgan e'tibor natijasida respublikamizda oilaviy korxonalarining yillar kesimida sonida ham sezilarli o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Bunga misol qilib respublikamizda 2017-yilda

oilaviy korxonalar soni 11207 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda – 14243 ta, 2019-yilda esa 23 170 tani tashkil etdi. Bu raqamlar 2020- hamda 2021- yillarda mos ravishda 38169 va 50924 taga ko'paydi. Respublikamizda mazkur sohaga berilayotgan e'tibor natijasini yuqoridagi raqamlardan ham aniq ko'rish mumkin. Ushbu vo'nalish bo'yicha Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni ko'pligi bo'yicha hisoblanganda 3-o'rinni oilaviy korxonalar egallagan bo'lib, ular 2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra jami tadbirkorlik subyektlarining 10,9 foiz ulushini tashkil etgan [9].

Shu bilan birga bizning fikrimizcha, tadbirkorlik to'g'risidagi hujjatlarni yanada yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga qo'proq erkinlik berish, uni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etib, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirishga e'tiborni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Bu yuzasidan muhim vazifalar deb quyidagilarni belgilash mumkin:

- tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat boshqaruvi idoralari, soliq va nazorat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlarida ochiqlik, shaffoflikni ta'minlash,

hisobotlar tizimida hamda moliya, soliq va statistika idoralariga hisobotlarni topshirish mexanizmini ularni elektron tizim bo'yicha taqdim etishga bosqichma-bosqich o'tish orqali tubdan soddalashtirish;

- oilaviy tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish hamda soddalashtirish;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarga barham berish, davlat boshqaruvi funksiyalarini qisqartirish va tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish bo'yicha aniq chora tadbirlarni amalga oshirish;

- oilaviy tadbirkorlik subyektlariga soliq, bojxona hamda boshqa to'lovlar bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadigan qo'shimcha imtiyoz va amaliy yordam berish;

Umuman olganda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish eng avvalo har bir mamlakat uchun foydali jihatlari ko'p. Faqat bu borada qilinayotgan ishlar yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni tizimli ravishda amaliyotga joriy etish soha samaradorligiga, albatta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 31.01.2023- yildagi PQ-39-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'RQ-327 sonli Qonuni. 2012-yil 23- mart.
3. Qudratov M.Q. va boshqalar. Oilaviy korxona iqtisodiyoti. Monografiya. – Toshkent: «Iqtisodiyot», 2012. 232-b.
4. Abduraxmonov Q.X. va boshqalar. Demografiya. Darslik. -Toshkent: "Iqtisodiyot", 2014.
4. Abduraxmonov Q.X va boshqalar. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. -Toshkent: TDIU, 2010.
5. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. -Toshkent: Universitet, 1997.
6. Tojiyeva Z.N. Aholishunoslik siyosati. O'quv qo'llanma. - T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. 176- b.
7. Tojiyeva Z.N., Dusmanov F.A., Ibragimov L.Z. 2020. Divorcing procedures in Uzbekistan and its territorial features. International Journal of Scientific & Technology Research, 9, 4096-4100, [Online]. Available: <http://www.ijstr.org/paper-references.php?ref=IJSTR-0120-29731> [accessed: 15 February 2021].
8. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi. Monografiya. -Toshkent: «Fan va texnologiya», 2010. 276-b.
9. stat.uz
10. www.lex.uz

REZYUME. Ushbu maqolada Oilaviy tadbirkorlik va uning mamlakat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida so'z boradi. Jumladan, Oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun davlatimizda yaratilgan imkoniyatlar va ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о семейном предпринимательстве и его роли в развитии страны. В частности даны созданные в нашей стране фонды для создания семейного предпринимательства, а также предложения и рекомендации по дальнейшему развитию этой сферы.

SUMMARY. This article talks about family entrepreneurship and its role in the country's development. In particular, the funds created in our country for the establishment of family entrepreneurship, further more and suggestions and recommendations were given for the further development of this field.